

“Uzbekistan Airways” AJ uchuvchilarni ishga qabul qiladi

2024 26 Mart

Uzbekistan Airways Airbus A320/321 rusumidagi havo kemalari komandiri va ikkinchi uchuvchi lavozimlariga talabgorlarni ishga taklif etadi!

Nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

- A320/321 havo kemalari uchun ruxsatnoma;
- FA uchuvchisining amaldagi guvohnomasi (ATPL);
- Amaldagi tibbiy guvohnoma (amal qilish muddati 6 oydan kam bo'lmagan);
- ICAO 4 shkalasi va undan yuqori bo'lgan ingliz tili darajasi (amal qilish muddati 6 oydan kam bo'lmagan);
- Hujjat topshirayotgan vaqtda belgilangan havo kemasida yuqorida ko'rsatilgan lavozimda 9 (to'qqiz) oydan ko'p bo'lmagan muddatda parvoz ishidagi tanaffus;
- Tugallangan fuqarolik yoki harbiy aviatsiya uchuvchisi ma'lumoti;
- Tugallangan oliy aviatsiya yoki oliy texnik ma'lumot (HKK);
- HKKlar uchun A320/321 turidagi havo kemalarda parvoz vaqti – kamida 1000 soat, ikkinchi uchuvchilar uchun – kamida 500 soat;
- Havo kemalari ekipajida tarkibida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan darajada davlat (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun), rus va ingliz tillarini bilish.
- Chet el fuqarolari uchun kamida 5 (besh) yillik parvoz tajribasi;
- Guvohnomaning qonuniyligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.
- Qabul yoshi – 55 yoshgacha!

Hujjatlar quyidagi elektron pochtaga yuborilsin: pilot.career@uzairways.com

Saralashning rejalashtirilgan sanasi **22.04.2023**, Toshkent shahrida.

Tanlov bosqichlari:

1. Suhbat;
2. ICAO shkalasi bo'yicha ingliz tili darajasini tekshirish;
3. Trenajyor sinov.

Shartnoma tuzish muddati - 12 oy; 36 oy.

- Tanlov ishtirokchilari tanlov o'tkaziladigan joyga va ortga qaytish uchun "Uzbekistan airways" AJ reyslariga aviachiptalar taqdim etiladi;
- HKK uchun oylik maosh 8000 AQSH dollaridan, ikkinchi uchuvchi uchun esa 3000 AQSH dollaridan boshlanadi;
- Mehnat ta'tili 45 ish kunigacha;
- Uchuvchi va oilasi uchun yilda bir marta chegirmali aviachiptalar beriladi.
- Yashash joyi uchun to'lov - 500\$.

Eslatma: To'ldirishingiz va yuborishingiz kerak bo'lgan ariza [ilova](#) qilingan.